

**ATROF-MUHITNI MUHOFAZA QILISH SOHASIDAGI JINOYATLARNING
NAZARIY-HUQUQIY ASOSLARI**

Fatulloev Dilshod Po'lotovich

Abu Rayhon Beruniy universiteti

Huquqshunoslik va ijtimoiy-iqtisodiy fanlar kafedrasida o'qituvchisi,

Annotatsiya: Ushbu maqolada atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlarning nazariy-huquqiy asoslari, ularning mohiyati, turlari va O'zbekiston Respublikasi jinoyat qonunchiligida belgilangan javobgarlik choralari tahlil qilinadi. Shuningdek, ekologik xavfsizlikni ta'minlashda jinoyat-huquqiy institutlarning o'rni hamda ushbu sohada xalqaro standartlar bilan uyg'unlashuv masalalari ko'rib chiqiladi.

Kalit so'zlar: atrof-muhit, ekologik xavfsizlik, jinoyat-huquqiy javobgarlik, ekologik jinoyatlar, O'zbekiston Respublikasi Jinoyat kodeksi.

Аннотация: В статье анализируются теоретико-правовые основы преступлений в области охраны окружающей среды, их сущность, виды и меры ответственности, установленные в уголовном законодательстве Республики Узбекистан. Также рассматривается роль уголовно-правовых институтов в обеспечении экологической безопасности и вопросы гармонизации с международными стандартами в этой области.

Ключевые слова: окружающая среда, экологическая безопасность, уголовно-правовая ответственность, экологические преступления, Уголовный кодекс Республики Узбекистан.

Annotation: This article analyzes the theoretical and legal foundations of crimes in the field of environmental protection, their essence, types and measures of responsibility established in the criminal legislation of the Republic of Uzbekistan. The role of criminal law institutions in ensuring environmental safety and the issues of harmonization with international standards in this area are also considered.

Keywords: environment, environmental safety, criminal law liability, environmental crimes, Criminal Code of the Republic of Uzbekistan.

Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, ularni asrash va tiklash har bir davlatning ekologik siyosatida ustuvor yo'nalish hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 68-moddasida yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylik ekanligi hamda ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidaligi keltirib o'tilgan [1].

Jinoyat kodeksi bilan taqiqlangan, aybli ijtimoiy xavfli qilmish uchun jazo qo'llash tahdidi jinoyat deb topiladi. Jinoyat kodeksi bilan qo'riqlanadigan obyektlar, jumladan, ekologik munosabat obyektlariga zarar yetkazadigan yoki shunday zarar yetkazish real

xavfini keltirib chiqaradigan qilmish ijtimoiy xavfli deb topiladi [2]. Jinoiy javobgarlik o‘z xususiyatiga va ijtimoiy xavfliligiga ko‘ra: ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan, uncha og‘ir bo‘lmagan, og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlarga bo‘linadi. Ekologik javobgarlik esa, afsuski, ijtimoiy xavfi katta bo‘lmagan va uncha og‘ir bo‘lmagan jinoyatlar toifasiga kiritilgan. Lekin atrof tabiiy muhitning ifloslanishi jamoa, davlat va shaxsning xavfsizligini belgilovchi omil hisoblanadi. Shuning uchun ham ayrim ekologik jinoyatlarni og‘ir va o‘ta og‘ir jinoyatlar toifasiga kiritish maqsadga muvofiqdir.

Ekologiya sohasida jinoyatlarni mazmuniga ko‘ra ikki guruhga ajratish mumkin:

I. Ekologiya xavfsizligi talablarini buzuvchilarga belgilangan jazolar (JKning 193-196,199-201-moddalarida aks ettirilgan)

II. Tabiiy obyektlardan foydalanish va ularni muhofaza qilish talablarini buzganlar uchun belgilangan jazolar[3] (JKning 197,198,202,203,204-moddalarida keltirilgan)

Aholining ekologik madaniyati, ongi va bilimni oshirishda hamda ekologik qonun talablariga rioya qilganlarga nisbatan rag‘batlantirish metodlarini qo‘llash huquqbuzarlikning kamayishi, intizomiy, ma‘muriy, fuqaroviy va jinoiy jazoni kamroq qo‘llashga olib kelishi mumkin. Yuridik tushdagi jazo, albatta, huquqbuzarliklarning oldini olishga xizmat qiladi. Lekin u aholining ekologik ongi, madaniyati va ta‘limiga ijobiy ta‘sir etmasligi ham mumkin. Chunki hech bir huquqbuzar, aksariyat hollarda o‘z aybiga iqror bo‘lmaydi va o‘zining xatti-harakatini to‘g‘ri deb biladi.

Ekologik jinoyatlar uchun kodeks eng kam ish haqining 5 barobaridan 100 barobarigacha jarima, 3 yilgacha axloq tuzatish ishlari, 3 yilgacha muayyan huquqdan mahrum qilish, 6 oygacha qamoq, 5 yilgacha ozodlikdan mahrum etish kabi jazolarni nazarda tutadi. Tabiiy resurslardan foydalanish va ularni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarda ham javobgarlik masalasi ko‘rilgan. Atrof tabiiy muhitga yetkazilgan zararni qoplash ixtiyoriy yoki majburiy bo‘lishi mumkin. Uni majburiy undirish tabiatni muhofaza qilish davlat qo‘mitasi, tabiiy resurslardan foydalanish va muhofaza etishni tashkil qiluvchi davlat organlarining manfaatdor yuridik shaxs va jismoniy shaxslarning da‘vosiga asosan tegishli sudning qaroriga binoan amalga oshiriladi[4]. Bunda Fuqarolik kodeksining 985-moddasi, Tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunning 49-moddasiga asoslanadi.

Shuningdek “...ekologik jinoyatlarni sodir etgan aybdorlarga nisbatan aksariyat hollarda ma‘muriy jazo qo‘llash bilan kifoyalanib qolinadi. Albatta masalaga bunday yondashish ekologik muammolarning yanada keskinlashuviga, uning tirik mavjudotlar uchun xavfi yanada oshishiga, ekologik jinoyatlarni sodir etishning yanada ko‘payishiga olib keladi [5]. ekologik jinoyatlar ijtimoiy xavfli bo‘lib, nafaqat atrof-muhitni, balki jamiyatning sog‘lig‘i va rivojlanishini ham jiddiy tarzda ta‘sir qiladi. Bu turdagi jinoyatlar tabiiy resurslarni so‘rib olish, chiqindilarni noto‘g‘ri joylarga tashlash, industrial ifloslanish va boshqa ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Bu ham iqtisodiy, ham ijtimoiy nuqtai nazardan juda katta zararga olib keladi.

Ekologik jinoyatlar o‘zining keng tarqalganligini va xavfini inobatga olgan holda, ularning oldini olish uchun qat‘iy qonunlar va nazorat tizimlari zarur. Ko‘plab davlatlar ekologik jinoyatlarni aniqlash, jazolash va oldini olish uchun maxsus qo‘mitalar va

“ZAMONAVIY DUNYODA SUN’IY IDROKNING RIVOJLANISHI: YANGI DAVR MUAMMOLARI VA YANGI YECHIMLAR JURNALI”

30-Oktyabr, 2025-yil

agentliklarni tashkil etgan. Masalan, ekologik jinoyatlar bilan bog‘liq qonunbuzarliklar ko‘plab hududlarda nafaqat jismoniy, balki iqtisodiy jazolarni ham o‘z ichiga oladi.

Chet el olimlari ekologik jinoyatlar va huquqiy mexanizmlar haqida bir nechta muhim fikrlarni ilgari suradilar. Ular ekologik jinoyatlarni nafaqat tabiiy resurslarning ekspluatatsiyasi, balki jamiyatning umumiy barqarorligiga tahdid sifatida ko‘radilar. P. S. Duff (Buyuk Britaniya olimi) ekologik jinoyatlar va ekologik huquq sohasida o‘zining "Environmental Law and Governance" asarida atrof-muhitni muhofaza qilish jinoyatlari huquqiy nazariyasini yoritgan. U ekologik jinoyatlarni faqat ijtimoiy salbiy oqibatlar bilan bog‘lamaydi, balki ularni jamiyatning atrof-muhitni to‘g‘ri boshqarish va resurslardan samarali foydalanishdagi muvaffaqiyatsizligining natijasi sifatida ko‘rib chiqadi. Uning fikriga ko‘ra, ekologik jinoyatlar “jamiyatning resurslarni isrof qilish va ularni befarq ravishda ishlatishning natijasidir”, va ular bilan kurashishda jismoniy jazolardan tashqari, ma'naviy va ta'limiy omillar ham muhim rol o‘ynaydi. Eric Posner (AQSH olimi) "The International Politics of the Environment" asarida ekologik jinoyatlarni davlatlararo munosabatlar nuqtai nazaridan tahlil qiladi. U ekologik jinoyatlar, ayniqsa, iqlim o‘zgarishi va transchegaraviy ifloslanish kabi global ekologik muammolarni ko‘rib chiqadi. Posnerning fikriga ko‘ra, xalqaro huquq, ayniqsa ekologik huquq, samarali bo‘lishi uchun "hukumatlar o‘rtasida o‘zaro manfaatlar asosida shartnomalar" va "ekologik jinoyatlar uchun global yuridik mexanizmlar"ni ishlab chiqish kerak. Stephan Hobe (Germaniya olimi) ekologik jinoyatlar va huquqiy javobgarlik masalalariga nisbatan ancha keng qamrovli yondashadi. Uning fikriga ko‘ra, ekologik jinoyatlar nafaqat jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshiriladigan huquqbuzarliklar, balki kompaniyalar va hatto davlatlar tomonidan sodir etilishi mumkin. Hobe, ayniqsa, korporativ ekologik jinoyatlar bilan bog‘liq huquqiy yondashuvlarni ta'kidlaydi. U korporatsiyalarning atrof-muhitga zararli faoliyatlarida huquqiy javobgarlikni belgilashda zamonaviy qonunchilik tizimlari yetarli darajada rivojlanmaganini ta'kidlaydi.

Atrof muhitni muhofaza qilish va tabiatdan foydalanish sohasidagi jinoyatlar va boshqa huquqbuzarliklar to‘g‘risida O‘zbekiston Respublikasi Oliy sudining 36-sonli Plenum qarori qabul qilingan. Unga ko‘ra sudlar tabiatni muhofaza qilish to‘g‘risidagi qonunlarni buzish bilan bog‘liq jinoyatlarni sodir etgan shaxslarga nisbatan jazo tayinlashda qonunning alohida yondoshuv talablariga og‘ishmay rioya etishlari kerak. Ko‘p miqdordagi qimmatbaho yoki noyob hayvonlar, parranda va baliqlarni qirib tashlash, o‘rmonlarga shikast yetkazish yoki ularni yo‘q qilish, qishloq xo‘jaligi mulklarini ishdan chiqarish va hokazo yo‘llar bilan davlatga katta zarar yetkazgan shaxslarga nisbatan qattiq jazo choralari qo‘llanishi kerak.

Hayvonot yoki o‘simlik dunyosidan foydalanish tartibini buzish haqidagi jinoyat ishlari bo‘yicha sudlanuvchiga tegishli jinoyat qurollari, shu jumladan, avtomashina, mototsikl va qayiqalar, agar jinoiy harakat ular yordamida amalga oshirilsa yoki sodir etilishi osonlashtirilsa, O‘zbekiston Respublikasi Jinoyat-protsessual kodeksining 211-moddasiga muvofiq musodara qilinishi lozimligi yuqorida ta'kidlab o‘tilgan Oliy sud Plenum qarorida o‘z aksini topgan [6].

30-Oktyabr, 2025-yil

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar bilan bog'liq nazariy-huquqiy asoslar atrof-muhitni saqlash, rivojlantirish va uni kelgusi avlodlarga yetkazish maqsadiga qaratilgan huquqiy me'yorlarning asosiy tizimini tashkil etadi. Ushbu maqolada keltirilgan xulosaga ko'ra, atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi jinoyatlar nafaqat ekologik muammolarni hal qilishda, balki insoniyatning o'zining kelajagini xavf ostiga qo'yadigan jiddiy huquqbuzarliklar sifatida ko'rilishi lozim.

Birinchidan, ekologik jinoyatlar uchun maxsus huquqiy normalar va jarimalar tizimi yaratilishi zarur. Bu nafaqat jinoyatchilikka qarshi kurashish, balki ekologik ongni shakllantirishga ham yordam beradi. Ikkinchidan, ekologik jinoyatlarni fosh qilish va sud tizimida tezkor qarorlar chiqarish jarayonlari samaradorligini oshirish kerak.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1) O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 01.05.2023-y., 03/23/837/0241-son.
- 2) O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi, Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 26.09.2025-y., 03/25/1084/0874-son.
- 3) Ekologiya huquqi: darslik/ Olim Narzullayev, Asqar Nigmatov. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 480 b.
- 4) Ekologiya huquqi, darslik / J.T. Xolmo'minov. – T.: TDYU nashriyoti, 2025. – 288 b.
- 5) M.B.Usmonov Ekologik jinoyatlarni baholash “Hayot va qonun”. 2001. №2-3. 36-bet
- 6) O'zbekiston Respublikasi Oliy sudi Plenumining qarori, 20.12.1996 yildagi 36-son. <https://lex.uz/ru/docs/-1442456>
- 7) www.lex.uz